

SURXONDARYO TABIIY GEOGRAFIK OKRUGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

TerDU Geografiya kafedrasida o'qituvchisi

Xasanov Primjon Ashurovich

TerDU Geografiya kafedrasida III bosqich talabasi

Xushboqova Mehriniso Gulmurod qizi

Annotasiya. *Maqolada Surxondaryo tabiiy geografik okrugi va uning o'ziga xosligi tabiat komponentlarida namoyon bo'lish xususiyatlari yoritib beriladi. Okrugning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, tabiiy landshaftlarini himoya qilish masalalarining ta'rifi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *relyefi, geologiyasi, geomorfologiyasi, morfostrukturaviy tabaqalanishi, tog' jinslari, paleogen va neogen yotqiziqlari, iqlimi, gidrologik rejimi, flora va faunasi.*

Abstract. *The article describes the natural geographical district of Surkhandarya and its characteristics of manifestation in natural components. The definition of issues of rational use of natural resources of the district, protection of natural landscapes is presented.*

Keywords: *relief, geology, geomorphology, morphostructural stratification, rocks, Paleogene and Neogene deposits, climate, hydrological regime, flora and fauna.*

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston hududini geologik-geomorfologik xususiyatlarini o'rganarganimizda, tekislik va tog'li relyef o'lkalarini yaqqol ko'rishimiz bo'ladi. Surxondaryo tabiiy geografik okrugi mamlakatimizning eng janubiy nuqtasi bo'lib tektonik cho'kmada hosil bo'lgan. Havzaning geomorfologik xususiyatlari: to'liqinsimon adirlar va to'rtlamchi davrning (nisbatan qadimiy) terassalaridagi to'liqinsimon tekisliklari, kuchli parchalangan serqoya relyefli o'rtacha balandlikdagi tog'lar tekislangan yuzali va yonbag'irli qoldiq past tog'lar, joylarda parchalangan relyeflar bilan, kuchli parchalangan serqoya relyefli baland tog'larda namoyon bo'ladi. Okrugda to'rtlamchi davrni baland terassalaridagi to'liqinsimon tekisliklar Surxondaryo va Sherobodaryo havzalari atrofida shakllanganligini, kuchli parchalangan relyefli baland tog'lar - Ko'hitang, Boysuntog', Surxontog' tizmalarida, muzli relyef shakllari - Hisor tog'larining nival zonasida hosil bo'lgan. Termiz shahri - hozirgi davrning qayir va yosh terrasalar tekisliklari, Sherobod tumani - to'liqinsimon adirlar, Boysun tumani - hozirgi davr qayir va yosh terrasalari, kuchli parchalangan tog' relyefi, Denov tumani uchun o'rtacha balandlikdagi tog'li relyef shakllari xosdir. Havzaning geologik shakllanishida neogen va to'rtlamchi davr sistemalari faol ishtirok etadi. Surxondaryo botig'i relyefida to'liqinsimon tekislik va to'liqinsimon adirlar keng maydonda tarqalgan.

Asosiy qism. Surxondaryo tabiiy geografik okrugi O'zbekistonning eng janubiy chekka qismida joylashgan va tektonik cho'kmada hosil bo'lgan. Okrug Sherobod-Surxon

vodiysining tekislik qismini egallaydi. Okrug chegarasining asosiy qismi tog' va tekisliklardan ko'tarilgan. Surxondaryo okrugi Turon provinsiyasi janubiy Tojikiston okrugining bir qismi hisoblanadi. Surxondaryo okrugi Kelif-Sherobod-Sariqqamish past tog'lari g'arbiy qismini, Bobotog' tizmasining g'arbiy yonbag'irlari - sharqiy qismini, Hisor tizmasining janubiy yonbag'irlari bilan shimol tomondan juda katta antiklonoriy hosil qilgan. Eng janubiy chegarasi Afg'oniston bilan davlat chegarasiga to'g'ri keladi (137 km). Okrug geologik tuzilishi jihatidan Hisor-Zarafshon okrugidan keskin farq qiladi, havza sinklinal botiqda joylashgan bo'lib paleogen va neogen davrlarining qalin allyuvial va prolyuvial yotqiziqdari to'plangan (Neogen va antropogen davr yotqiziqdari keng tarqalgan). Havza geologik jihatdan botiqda shakllangan va tektonik jarayonlar sodir bo'lishi faol kechib, tog'li qismi ko'tarib, botiq qismi cho'kib, bormoqda. Havzaning asosiy toponimlari: Hisor tog' tizmalari, Bobotog' tizmasi, Kelif-Sherobod-Sariqqamish past tog'lari, Ko'hitang tog'lari bir qancha past qum markazlari (Uchqizil 414 m, Zang, Xovdor 557 m, Oqqo'rg'on, Jayronxona, Ko'kaydi, Lalmikor 500 m, Oqtog' 750 m,) Sherobod cho'li va katta qum massivlari joylashgan. Ular orasida Xovdog' marzasi shimol tomonga davom etib, Qiziriqdara cho'liga qo'shilib ketadi. Qiziriqdara cho'li mutloq balandligi 400-500 m bo'lgan past-balandliklar, qum uyumlaridan tarkib topgan. Zamini lyosli jinslar bilan qoplangan. Qiziriqdara cho'li va Xovdog' marzasi Surxondaryo vohasini Sherobod vohasidan ajratib turadi. Sherobod daryosi havzasida juda katta yoyilma konusida joylashgan, markazida pastqam va botqoq yerlar ham hosil bo'lgan. Yoyilma konuslari qum va shag'allardan tuzilgan. Okrug janubiy qismida Xovdor va Uchqizil marzalarining sharqiy qismida: Kattaqum massivi joylashgan. Kattaqum Termiz shahrining janubi-sharqiy qismida chiqish eshigida joylashgan. Zamini to'rtlamchi davrning to'lqinsimon tekisliklari bilan band. Surxondaryo okrugining eng past yeri Amudaryo qayirlariga to'g'ri kelib, bu yerda botqoq bosgan yerlar ko'p uchraydi. Havzaning asosiy daryosi Surxondaryo hisoblanib, bir qancha qayirlarni hosil qiladi. Bu ko'hna qayirlarni nisbiy balandligi 1-12 m gacha yetadi. Qayirlar ustki qismi qumoq va lyosimon jinslar (30-90 m gacha) bilan qoplangan. Bu yumshoq jinslar - suffozion jarayonlar ta'sirida ancha yuvilgan va yemirilgan. Suffozion jarayonlar ko'proq qumli, lyosli va boshqa dispres jinslarda sodir bo'lish jarayoni jadal kechadi. Havzaning tabiiy landshaftlarining shakllanishida tog' jinslari va relyef omili yetakchilik qiladi. Tabiiy sharoitining o'ziga xosligidan kelib chiqib tabiat komponentlari ham juda xilma-xil xususiyatlarga ega. O'simlik va hayvonot olami, tuproq, relyefi, iqlimining takrorlanmasligi bilan boshqa okruglardan farqlanadi.

Iqlimi quruq subtropik tipli yozi juda issiq va quruq, qishi qisqa va iliq. Okrugda sovuqsiz kunlar 227-266 kun o'simlik o'sishi uchun eng qulay va vegetatsiya davridagi o'rtacha haroratlar yig'indisi 5500-5960°C bo'ladi. Harorat 5°C dan kam bo'lmaydigan kunlar soni 290-320 kungacha boradi. Yog'in miqdori 133 mm Termiz shahrida, 154 mm Sherobod, 288 mm Sho'rchi, 495 mm Zarcho'l qishlog'ida, 445 mm Boysun tumanida, 625 mm Sharg'unga to'g'ri keladi. Havzada yozda g'arbiy, janubi-g'arbiy; qishda shimoli-sharqiy shamollar hukmronlik qiladi. Shamollarning o'rtacha tezligi 2.6 m/s, ba'zan 15 m/s

boradi. Janubi-g'arbiy quruq va chang to'zonli Afg'on shamoli yil davomida o'rtacha 10-15 kungacha davom etadi. Qishloq xo'jaligiga ancha talofat keltiradi. Qulay iqlim sharoiti subtropik o'simliklar yetishtirishga imkon beradi. Obikor dehqonchilik bilan sug'oriladigan mintaqalarda shug'ullaniladi. Surxondaryo okrugi berk havzada, tog'lar orasida joylashganligi uchun yog'in miqdori juda kam 133-360 mm gacha. Yog'in miqdori yer usti tuzilishiga bog'liq holda janubi-g'arbiy tekislik qismida 133 mm, shimoli-sharqiy qismida 360 mm gacha o'zgarib boradi. Yog'inning asosiy qismi bahor va qish fasllariga to'g'ri keladi. Surxondaryo tabiiy geografik okrugining iqlim ko'rsatkichlari uzviy 5 ta stansiya (Termiz, Sherobod, Boysun, Sho'rchi, Denov) da kuzatib boriladi. Surxondaryo havzasi suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan. Yer osti suv zaxiralariga ega. Asosiy daryolari Surxondaryo va Sherobodaryo. Surxondaryo Qorovultepa qishlog'idan biroz yuqorida To'palangdaryo va Qoradaryo qo'shilishidan vujudga keladi. Boysun va Bobotog' tizmalari oralig'idan janubi-g'arb tomon oqib borib, Termiz shahri yonida Amudaryoga quyiladi. Uzunligi 175 km (To'palangdaryoning boshlanish joyidan 297 km), havzasining maydoni 13500 kv.km, tog'li qismiga 8280 km² qismi to'g'ri keladi. Surxondaryo havzasi shimolida Hisor, janubda Amudaryo, g'arb va janubi-g'arbda Boysun, sharqda Bobotog' tog'lari bilan chegaralanadi. Yirik irmoqlari Hisor tog'laridan boshlanadi. Suv sarfi o'rtacha 120m³/s, yillik suv hajmi 3.8 mlrd.m³, uning 70% yoki 2.7 mlrd.m³ Hisor tizmasi yonbag'irlarida vujudga keladi. Asosiy irmoqlari: To'polong, Qoratog'daryo hisoblanadi. Shuningdek Sangardak va Xo'jaipok daryolari uning yirik irmoqlari hisoblanadi. Yirik soylari: Vaxshidaryo - 24 km, Konikon - 32 km, Oqqopchig'ay - 61km, Oqsaroy - 51 km, Boysun - 82 km soylarni aytishimiz mumkin. Surxondaryo To'polong va Qoratog'daryo qo'shilgan yerdan boshlab Amudaryo sohillarigacha 60 ga yaqin katta-kichik soylarni o'ziga qo'shib oladi. Ularning eng asoslari: Lalmikorsoy, Toshko'mirsoy, Oqqopsoy, Sho'rchisoy va Lovloysoylardir. 2 ta yirik Sangardak va Xo'jaipok kabi irmoqlarga ega. Havzaning ikkinchi muhim daryosi - Sherobodaryo. Uzunligi 186 km. Daryoning xalq xo'jaligida va aholining kundalik ehtiyojlarida daryo suvidan samarali foydalanib kelinmoqda. Sherobodaryosiga sel oqimlari, suv toshqinlarini oldini olish maqsadida gidrouzel barpo etilgan. Okrugda vujudga keladigan suv tanqisligi muammolarini oldini olish maqsadida Amu-Zang mashina kanali barpo etilgan. Tabiiy geografik okrug yerusti va yerosti suvlari bilan yaxshi ta'minlanganligi bilan tavsiflanadi. Hidrogeologik jihatdan okrug Sherobod-Surxondaryo artezian havzasiga kiradi va yer osti suv zahiralarning ko'plab konlari izlab topilgan. Qo'shni O'rta Zarafshon va Qashqadaryo okruglariga qaraganda bu jihatdan ancha yaxshi suv resurslariga ega. Yer osti suvlaridan foydalanish miqdori sekundiga 33.9 m³ ni tashkil etadi. Okrug yer osti suvlarining hosil bo'lishida bo'r, paleogen, neogen va antropogen davr yotqiziqlari orasida hosil bo'lgan. Havzada 1000- 2000 m chuqurlikda bo'r davri yotqiziqlari orasida termik suvlar vujudga kelgan va ularning ko'pchiligi minerallashtirgan termik suvlar hisoblanadi. Termik suvlar harorati 60-70°C gacha bo'lib, chuqur qazilganda kuchli bosim ostida o'zi favvora kabi otilib chiqadi. Yer osti suvlarining bir nechta zahira konlari aniqlangan. Okrugda suv tanqisligi muammolarini bartaraf etishda ter osti suvlarining o'rni muhimdir.

Hozirda oz bo'lsada yer osti suvlaridan xo'jalik ehtiyojlarida foydalanilmoqda. Paleogen va neogen davri yotqiziq-lari orasida minerallashgan. Termal suvlar 140-150 m chuqurlikda hosil bo'lgan. Antropogen davr yotqiziq-lari orasida suvlar minerallashish darajasi past, chuchuk va harorati ham ancha pastdir. Havzada qidirib topilgan yer osti suv zaxiralaridan qisman sug'orish maqsadida foydalaniladi. Havzada yer osti suv konlarini qidirib topish va undan xo'jalik ehtiyojlarida keng foydalanish, ayniqsa berk havzada joylashgan - Surxondaryo okrugi, O'zbekiston uchun ham samaralidir. Havzada tog' jin-slarining hosil bo'lishi va tuproq qatlamining vujudga kelishda, murakkab hosilali ruxlyaklarni ishtirok etadi. Ruxlyaklar organik va anorganik moddalarga boy emas. Ularning tuproq qatlamiga aylanishi uchun yetarli shart-sharoitlar vujudga kelishi lozim. Organik massalar to'planmagan o'simlik va hayvon qoldiqlari chirishga ulgurmagan tog' jin-slarini hali to'liq tuproq qatlami hisonlanmaydi. Havzaning tuproq qatlami iqlim va relyef sharoitiga bog'liq holda hududlarda turlicha. Tekisliklarda och bo'z tuproqlar tarqalgan va chirindi miqdori 1-1.5%, 500-600 m gacha balandliklarda oddiy bo'z tuproqlar tarqalgan chirindi miqdori 2.5% gacha boradi. Yer osti grunt qatlami yer betiga yuza bo'lgan hududlarda janubi-g'arbiy qismida sho'rlangan, gil jin-slardan iborat yerlarda taqirlar, janubiy qum massivida cho'lqo'ng'ir tuproqlar, daryo qayirlarida allyuvial o'tloq, o'tloq botqoq tuproqlar tarqalgan. Vohalarda bo'z tuproqlar tabiiy xususiyatlarini yo'qotib sug'oriladigan madaniy vo-ha tuprog'iga aylangan. Surxondaryo okrugida o'simlik qoplami janubdan shimolga va tekislikdan tog'larga tomon o'zgarib boradi. Qurg'oqchil hududlarida shuvoq, efemerlardan rang, qo'ng'irbosh, no'hatak va isiqqa mose o'simliklari o'sadi. Cho'l va qumli yerlarda qandim, oq saksovul, cherkez, taroqbosh, yaltirbosh tarqalgan. Yulg'un, jiyda, turong'il, terak, qamish, savag'ich kabilarni daryo vodiylari va to'qaylarda uchraydi. Okrugda adir va tog' o'tloqlari ko'p. Efemer o'simliklar asosan adir mintaqasida o'sadi. Shuvoq, kovrak, qo'ziquloq o'tlarini uchratishimiz mumkin. Havzaning Sangardak va To'palangdaryoning yuqori qismida 1200-4000 m gacha bo'lgan qismlarida daraxtzor va butazorlar keng tarqalgan. Undan kam yuqorida tog' o'tloqlari keng maydonni egallagan. Havzaning subtropik iqlimi anor, anjir, xurmo, shakarqamish, sitrus mevalar yetishtirish uchun qulay sharoit vujudga kelgan. Denovdagi subtropik botanika bog'ida issiq mamlakatda o'sadigan mevalar va daraxtlar ko'paytirilmoqda. Hayvonot olamida bo'ri, tulki, jayron, kalamush, qo'shoyoq, yumronqoziq kabi hayvonlar bilan birga Hind maynasi, qaldirg'och, ko'rshapalak kabi subtropik mintaqaga xos turlar uchraydi. Sudralib yuruvchilar ko'p. Buni, to'qay mushugi, qirg'ovul, xonful, yovvoyi cho'chqa, tulki, chiyabo'ri, g'oz, o'rdak kabilar daryo havzalari va to'qaylarda uchraydi. Qo'riqxonada tarkibida Ko'hitang buyurtmasidan tog' landshaftlari muhofaza etiladi, hududda mashhur Zarautkamar arxeologik yodgorligi ham joylashgan. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish maqsadida Surxon davlat qo'riqxonasi tashkil etilgan. Qo'riqxonada o'simlik va hayvonot olami bir butunligicha, asl holatda muhofaza etiladi. Okrugda keng tarqalgan o'simlik va hayvonot olamini muhofaza etish, uning tabiiy landshaftlaridan oqilona foydalanish zarur. Havzaning tabiiy resurslariga antropogen omilning ta'siri tobora ortib borishi bilan tavsiflanadi. Tabiatda har bir tabiat

komponentning o'z vazifasi mavjud. Agarda bitta daraxtning kesilishi - shu hududda yashovchi o'simlik dunyosi o'zgarishi, quyosh radiatsiyasining ortishi, tuproqni shamol uchirishiga olib keladi. Okrugning tabiiy boyliklari uning foydali qazilmalari, suvlari, issiq iqlimi va unumdor tuproq qoplami hisoblanadi. Okrugda balandlik mintaqalari shakllangan, Turkistonning janubidagi hududlari uchun xos barcha balandlik mintaqalari uchraydi. Adir mintaqasi 500 m dan 1200-1300 m gacha bo'lgan tog' oldi hududlarini o'z tarkibiga oladi. 1300 m dan 3000 m gacha balandlikda gumid yoki tog' mintaqasi shakllanganligi, undan ham yuqorida Subnival yoki baland tog' mintaqasi yaylovlarini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Balandlik mintaqalari pastdan yuqoriga ko'tarilgan sari birin ketin almashinib boradi. Havzaning tabiiy sharoiti, relyefi, balandlik mintaqalarining iqlimiy va gidrologik sharoiti, o'simlik va tuproq qoplamidagi o'zaro tafovutlar asosida 3 ta tabiiy geografik rayon (Quyil Surxon, O'rta Surxon va Yuqori Surxon) rayonlariga ajratiladi. Ularning har bir o'zining tabiiy komponentlariga egaligiga ko'ra farqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo tabiiy geografik okrugining o'ziga xos xususiyatlari tabiiy landshaftlari va komponentlarida namoyon bo'ladi. Havzaning tabiiy resurs va boyliklaridan oqilona foydalanish eng muhim masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Xasanov I.G'., G'ulomov P.N., Qayumov A.A. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" 2 qism.
2. Yarashev Q.S "Surxondaryo viloyati paragenetik landshaftlari" Toshkent 2019.
3. Baratov P. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" O'qituvchi -1979.
4. G'ulomov P.N. "O'zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari" Toshkent-1990.
5. Xasanov I.A, G'ulomov P.N "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" ma'ruzalar matni. Toshkent "Universitet" 2000.
6. Surxon davlat qo'riqxonasi rekreatsion turistik obyekt sifatida "Экономика Цосиум" 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi tabiiy kartasi.
8. Surxondaryo viloyati tabiiy kartasi.